


Andijon viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi 2020-yilning yanvar-avgust oylarida

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2020-yilning yanvar-avgust oylarida

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 053,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 822,3 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar — iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faolivatinin natiiasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7 053,5	102,5
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	364,1	112,1
Moliyaviy xizmatlar	1 491,6	128,5
Transport xizmatlari	1 487,8	96,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 453,9	98,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	105,4	82,3
Savdo xizmatlari	2 181,1	97,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	184,6	87,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	287,9	116,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	112,2	74,5
Ijara xizmatlari	146,0	91,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	141,8	87,8
Shaxsiy xizmatlar	316,5	92,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	60,3	78,4
Boshqa xizmatlar	174,2	97,8

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omillardan biri, ta'lim sohasidagi xizmatlar 16,0 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 12,1 % ga o'sishi hisoblanadi. 2020-yilning yanvar-avgust oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yilning yanvar-avgust oylarida uning ulushi 30,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (21,1 %), transport xizmatlari (21,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,2 %) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulushlar yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,0 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan % da
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (28,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (12,1 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (25,5 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (21,6 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (17,7 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (12,6 % ga), ijara xizmatlari (8,3 % ga) shuningdek, transport xizmatlarida (3,3 % ga), pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Savdo bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,0 % ni tashkil etib, bu 1 905,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana
savdosi, jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini**



**Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari)**



**Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 84,9 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,6 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 491,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Taqqoslash uchun: 2019 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 130,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan.






Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 21,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019 yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 18,1 % ni tashkil qilgan.

Moliyaviy xizmatlarning hajmni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 361,3 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Ularning o'sishi 28,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019 yil yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati 168,8 % ni tashkil qilgan.


Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 86,9 % ni tashkil etadi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi 10,0 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,1 % oralig'ida qayd etildi.



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)




2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan

2020-yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 364,1 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 112,1 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)



yanvar-avgust
2020 yil

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,8 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,2 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 1,1 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

2020-yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 287,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,0 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 82,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 105,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hajmi 4,1 milliard so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,5 % bilan ustunlik qiladi.


2020-yilning yanvar-avgust oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalar, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

2020-yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 112,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 74,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 246,0 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajmi – 2 246,0 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan foizda – 100,4%

2019 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan hajmning o'sishi – 221,9 ming so'mga



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - **21 910 birlikda**

Ularning umumiy sonidagi ulushi - **62,2 %**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - **111,7 %**



2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 62,2 %, sanoat - 22,8 %, qurilish - 8,5 % ga yetdi va atigi 6,5 % i

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (43,7 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,9 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 19,6 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 41,0 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,3 %, tashish va saqlash - 6,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,6 %, axborot va aloqa - 2,9 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 39,1 % ni tashkil etgan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 19,1 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,5 mingtaga ko'paydi va 9,6 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 19,6 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,3 mingtaga ko'paydi va 1,7 mingtani tashkil etdi.

2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 77,7 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,5 % ni tashkil etdi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

74-228-30-83